

## **TASVIRIY IFODA**

**G‘ofirova Ruxshona**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti unuversiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi talabasi*

*Elektron pochta:ruxshonagofirova548@gmail.com*

*Telefon raqam: +998930988958*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy ifodaning nazariy asoslari, adabiy matnlardagi qo‘llanish usullari, estetik va badiiy ahamiyati hamda o‘qitilishi yoritiladi. Maqolada tasviriy ifoda vositalarining adabiy-estetik qimmatini aniqlash uchun ilmiy yondashuvlar asosida amaliy tahlillar ham keltirilgan. Ushbu tadqiqot natijalari tasviriy ifodaning o‘quvchilarga ta’sirchanlik darajasi va obrazlilikni kuchaytirishdagi o‘rni haqida ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy ifoda, badiiy vosita, obrazlilik, metodika, ona tili ta’limi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретические основы выразительности, её использование в литературных текстах, эстетическая и художественная значимость, а также методика преподавания. На основе научного подхода представлены практические анализы, направленные на определение литературно-эстетической ценности выразительных средств. Результаты исследования позволяют сделать научные выводы о степени воздействия выразительности на читателя и её роли в усилении образности.

**Ключевые слова:** выразительность, художественное средство, образность, методика, преподавание родного языка.

**Abstract:** This article discusses the theoretical foundations of figurative expression, its usage in literary texts, its aesthetic and artistic significance, as well as its teaching methodology. Based on scientific approaches, the article presents practical analyses aimed at determining the literary and aesthetic value of expressive devices. The results of the study make it possible to draw scientific conclusions about the impact of figurative expression on readers and its role in enhancing imagery.

**Keywords:** figurative expression, literary device, imagery, methodology, native language education.

## KIRISH

Inson tafakkurining eng nozik va go'zal ifodalaridan biri bu — tasviriy ifodadir. Tasviriy ifoda — bu badiiy matnning hissiy, estetik va obrazli qirralarini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biridir. Til orqali estetik ta'sir o'tkazish, obraz yaratish, muallif g'oyasini chuqurroq anglatish uchun badiiy vositalarning keng qo'llanishi doim muhim bo'lgan. Tasviriy ifoda vositalarini tizimli, struktural yondashuv asosida o'rghanish, ularning funksional imkoniyatlarini ochib berish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Shuningdek, yosh avlodga badiiy tafakkurni shakllantirishda, o'quvchilarda matnni anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham tasviriy ifodaning tutgan o'rni beqiyosdir. Tasviriy ifoda vositalari orqali matn nafaqat mazmun jihatidan, balki estetik zavq baxsh etish, hissiy holat yaratish jihatidan ham o'qiluvchi bilan ruhiy aloqa o'rnatadi.

"Tasviriy ifoda" haqida gap ketganda, unutmaslik kerakki, ibora til birligining tabiiy hosilasi, tasviriy ifodalar esa nutqda yaratilgan birlikdir. Tasviriy ifoda badiiy adabiyotdagi ramz mavzusi bilan bog'liq: biror narsaning nomini aniq atamay, uning xususiyat, belgisidan kelib chiqqan holda tasvirlash tasviriy ifodadir. [2.250]

Tasviriy ifodalar (po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mexanik-haydovchi o'rnida); zangori ekran, oynai jahon (telvizor); qanotli do'stlar (qushlar); oq oltin (paxta)) dan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligiuni ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi. [1.84]

Tasviriy ifoda adabiyot va til ta'limining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U o'quvchining obrazli fikrlashi, estetik didi va tahliliy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada tasviriy ifodaning o'quv jarayonida qo'llanilishi va unga oid metodik yondashuvlar bayon qilinadi.

O'quvchilarga tasviriy ifodani o'qitilishiga oid tavsiyalar:

1-topshiriq. Berilganlar ichidan tasviriy ifodalarni toping va raqamlarni jadvalda to'g'ri joylashtiring.

- 1) Kumush tola ijodkorlari; 2) kumush tola; 3)qanotli do'stlarimiz../

2-topshiriq.

Tasviriy ifodalar anglatgan ma'nolardan kelib chiqib gaplar tuzing.. [2.251]

Tasviriy ifodalarni o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

-*Vizual metodlar*: matnlar asosida rasm, videolar bilan uyg'unlashtirish;

-*Taqqoslash metodi*: oddiy va tasviriy ifodalarning farqini tahlil qilish;

-*Rol o'ynash*: ifodalarning obrazli talqini orqali sahnalaştirish;

-*Test savollari (ko'chma ma'nolarni aniqlash)*


-*Matn asosida tahliliy yozma ish*

a) “Fikrlar yog'dusi” usuli

Bu usul orqali o'quvchilardan “Tasviriy ifoda nima?”, “Nima uchun muallif oddiy ifoda o'rniiga obrazli vositadan foydalangan?” kabi savollar asosida erkin fikrlar so'raladi. Javoblar doskaga yoziladi va guruh bo'lib tahlil qilinadi.

b) “Venn diagrammasi”

Tasviriy va sodda ifodalarning o'zaro o'xshashlik va farqlari Venn diagrammasi yordamida ko'rsatiladi. Bu orqali o'quvchi obrazli fikr bilan bevosita tanishadi va analiz ko'nikmasi shakllanadi.



Tasviriy ifoda — o'quvchining estetik tafakkurini rivojlantiruvchi vosita. Uni to'g'ri va tizimli o'rgatish orqali nafaqat adabiyot, balki umumiylash madaniyatini shakllantirishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda tasviriy ifoda vositalari – adabiy matnning asosiy estetik negizidir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, badiiy adabiyotda tasviriy ifoda vositalari (metafora, epitet, personifikatsiya, gradatsiya, ironiyalar) matnning obrazlilik darajasini belgilaydi va o‘quvchining estetik zavqini oshiradi. Ular orqali nafaqat voqealar, balki ruhiy holatlar, falsafiy fikrlar, jamiyatdagi ijtimoiy masalalar ham ifodalanadi. Muallifning individual uslubi tasviriy vositalar orqali shakllanadi. O‘zbek adabiyotining yetuk vakillarining asarlarida tasviriy vositalar mualliflik uslubining markazida turadi. Har bir adib o‘z obrazini, uslubini tasviriy vositalar orqali shakllantiradi. Tasviriy ifoda – estetik va didaktik vosita sifatida o‘quvchi tafakkurini boyitadi. Shu sababli tasviriy ifodani o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b
2. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn]: darslik/ D.N.Yuldasheva.-Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. -424 b.